

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI FANLAR AKADEMIYASI
MINTAQAVIY BO‘LIMI
XORAZM MA‘MUN AKADEMIYASI**

**«O‘ZBEKISTONDA TABIIY FANLARNING
ZAMONAVIY TADQIQOTLARI VA ILM-FAN
INTEGRATSIYASI» MAVZUSIDAGI
RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY ANJUMAN
MATERIALLARI**

(2024-yil 19-20-sentabr)

Xiva shahri - 2024

Umuman olganda, 2022-2023-yillarda o'tkazilgan ilmiy tajribalar natijasida xulosa qilish mumkinki, dastarbosh turlari Xorazm viloyatining o'rtacha sho'rlangan tuproq va iqlim sharoitida yaxshi o'sib rivojlanishi isbotlandi.

O'tkazilgan ko'p yillik tajribalar hamda vegetatsiyasining o'sish va rivojlanish fazalarida qayd qilingan fenologik muddatlar natijalariga ko'ra, respublikamizdagi dorivor o'simliklarga ixtisoslashgan klasterlarga farmatsevtika sanoati uchun xom ashyo tayyorlash va dorivor o'simliklarni xorijga eksport qilish maqsadida Xorazm viloyatining o'rtacha sho'rlangan va sug'oriladigan o'tloqi – allyuvial tuproqlari sharoitida oddiy dastarbosh (*Tanacetum vulgare* L.) va kumushsimon dastarbosh (*Tanacetum argenteum* L.) turlarini ekin maydonlarini kengaytirish va katta plantatsiyalarga ekish maqsadga muvofiqdir.

Foylalanilgan adabiyotlar:

1. Voronova, I. A. Agroecological aspects of cultivation of milk thistle (*Silybum marianum* (L.) Gaertn.) in the conditions of forest-steppe of the Middle Volga region // *Nijnaya Povolzhya*. – 2014. – № 1(30). – P. 23-29.
2. Косаковская И.В. Физиолого-биохимические основы адаптации растений на стрессы// – Киев, 2003. С.-192.
3. Крылова А.Ю., Куликов М.Ю., Килякова А.Ю., Тонконогов Б.П., Сафиева Р.З., Дауди Д.И. Биомасса и биотехнологии: учебное пособи». – М: Международные отношения, 2021. С-5-8.
4. Нилов В.Н. Методы статистической обработки материалов фенологических наблюдений // *Журнал ботаники*. 1980. – №2 (65). – С. 282-284.
5. Тухтаев Б.Ю., Махкамов Т.Х., Тулаганов А.А., Маматкаримов А.И., Махмудов А.В., Аллаяров М.У. Инструкция по организации плантаций лекарственных и питательных растений и заготовке их сырья. – Ташкент, 2015. - С. 3-5.
6. Холлиев А.Э., Норбоева У.Т., Жабборов Б.И. Влияние водного дефицита почвы на некоторые параметры водообмена и засухоустойчивость сортов хлопчатника в условиях Бухарской области // *Молодой ученый*. — 2015. — № 10 (90). — С. 483-485.

XORAZM VILOYATI TUPROQ-IQLIM SHAROITIDA BO'ZNOCH (*HELICHRYSUM*) TURLARINING UNUVCHANLIGI VA O'SISH ENERGIYASI

¹**Abduraximov U.K., ²Ilyosov A.A.**

¹*Xorazm Ma'mun akademiyasi, ²Buxoro davlat universiteti,*

E-mail: umaro.au@mail.ru

Ma'lumki, har qanday o'simlik turlari urug'larning unib chiqish biologiyasini tadqiq qilish o'simliklarning latent davrini o'rganish borasida asosiy yo'nalishlardan biri hisoblanadi. Bu yo'nalishlar bo'yicha olingan ilmiy natijalar amaliy maqsadlar uchun ham dorivor o'simliklar genofondini saqlash va urug'lik

zahiralarini yaratish uchun ham, shuningdek, turning evolyutsion va adaptiv potensialini belgilaydigan nazariy masalalarni – sistematik va filogenetik yo‘nalishlarini belgilashda muhim ahamiyatga ega [2].

Qishloq xo‘jaligi ekinlaridan yuqori hosil olishni shakllantirishning eng asosiy shartlaridan biri bu ekish uchun yaroqli sifatli urug‘lardan foydalanishdir. Sifatli urug‘lik materiali asosan o‘simlikning dala sharoitida unuvchanligini, nihollarning o‘sinh tezligini, o‘simlikning chidamliligini va oxir oqibat ko‘chat qalinligini belgilab beradi. Bundan tashqari, qishloq xo‘jalik ekinlarini yetishtirishda o‘tkaziladigan turli agrotexnik tadbirlarning samaradorligi ham ko‘p jihatdan ekiladigan urug‘ning sifatiga bog‘liq [3].

Urug‘larning ekishga yaroqliligini aniqlashga imkon beruvchi asosiy ko‘rsatkichlar bu – unib chiqish va o‘sinh energiyasi hisoblanadi. Urug‘lik sifati esa urug‘larning ekishga yaroqliligini tavsiflovchi belgilar va xususiyatlar majmuasini tashkil qiladi [1.].

Shulardan kelib chiqib, biz o‘z ilmiy tadqiqotlarimizda Xorazm viloyati tuproq-iqlim sharoitida bo‘znochi (qumloq bo‘znochi – *Helichrysum arenarium* D.C. va Samarqand bo‘znochi – *Helichrysum maracandicum* M.Pop.) turlarining laboratoriya sharoitida unuvchanligi va o‘sinh energiyasini qiyosiy o‘zgarish dinamikasini tadqiq qildik.

Tajribalarimizda bo‘znochi turlari urug‘larini laboratoriya sharoitlarida unuvchanligini o‘rganish maqsadida, tajribalar Petri likobchasiga filtr qog‘oz to‘shilib, 100 tadan urug‘ ekilib, 3 takroriylik asosida olib borilib, sinab ko‘rildi va tahlil qilindi. Sinov uchun Petri likobchasiga ekilgan bo‘znochi turlari urug‘larida unuvchanlik 3-5 kundan so‘ng ko‘zatila boshlaydi. Tajribalarning ko‘rsatilishicha, qumloq bo‘znochi urug‘larining unuvchanligi Samarqand bo‘znochiga nisbatan yuqori bo‘lib, laboratoriya sharoitida [25°C] o‘rtacha 89,4% ni tashkil etdi (1-jadval).

1-jadval

Bo‘znochi turlari urug‘larining unuvchanligi, %

Qumloq bo‘znochi - <i>Helichrysum arenarium</i> D.C.				
Takroriyliklar	1-Takroriylik	2-Takroriylik	3-Takroriylik	O‘rtacha
M±m	88,2±0,62	90,4±0,58	89,7±0,68	89,4±0,36
V	2,24	2,03	2,39	1,30
L	84,7-90,6	86,5-92,3	86,2-93,4	87,2-90,7
S	1,98	1,84	2,15	1,16
Samarqand bo‘znochi – <i>Helichrysum maracandicum</i> M.Pop.				
M±m	73,7±0,50	77,5±0,58	76,2±0,62	75,8±0,46
V	2,16	2,37	2,59	1,94
L	70,1-75,6	74,6-80,5	72,1-78,5	72,5-77,4
S	1,59	1,84	1,97	1,47

*V – Variatsiya *L – Limit *S – Standart og‘ish

1-takroriylikda qumloq boʻznochi urugʻlarining unuvchanligi 84,7-90,6% oraligʻida kuzatilib oʻrtacha 88,2% ni tashkil qilgan boʻlsa, ushbu koʻrsatkich Samarqand boʻznochi urugʻlarida 70,1-75,6% oraligʻida boʻlib oʻrtacha 73,7%, ekanligi aniqlandi.


2-takroriylikda qumloq boʻznochi urugʻlarining unuvchanligi 86,5-92,3% oraligʻda boʻlib, oʻrtacha 90,4% ni tashkil qildi. Samarqand boʻznochi urugʻlarning unuvchanligi 74,6-80,5% oraligʻida boʻlib, oʻrtacha 77,5% ekanligi kuzatildi.

3-takroriylikda qumloq boʻznochi urugʻlarining unuvchanligi 86,2-93,4%, oraligʻida tebranib, oʻrtacha 89,7% ekanligi kuzatilgan boʻlsa, ushbu koʻrsatkichlar Samarqand boʻznochi urugʻlarida 72,1-78,5%, oraligʻida tebranib, oʻrtacha 76,2% ni tashkil qildi (1-jadval).

Boʻznoh turlari urugʻlarining unuvchanligi oʻrtacha 3 ta takroriylik tahlili natijasida qumloq boʻznochi urugʻlarining unuvchanligi 87,2-90,7% oraligʻida kuzatilib, oʻrtacha 89,4% ni tashkil qilgan boʻlsa, ushbu koʻrsatkich Samarqand boʻznohida 72,5-77,4% oraligʻida boʻlib, oʻrtacha 75,8% ekanligi aniqlandi (1-rasm).

Shuningdek, biz oʻz tajribalarimizda boʻznoh turlari urugʻlarining oʻsish energiyasini ham aniqladik. Oʻtkazilgan tadqiqot natijalaridan shunday xulosa qilish mumkin-ki, qumloq boʻznochi urugʻlarining oʻsish energiyasi yuqori boʻlib, laboratoriya sharoitida oʻrtacha 84,3% ni tashkil qilishi kuzatildi

Qumloq boʻznochi 1-takroriylikda urugʻlarning oʻsish energiyasi 79,3-87,1% oraligʻda kuzatilib, oʻrtacha 83,6% ni tashkil qildi. Samarqand boʻznochi urugʻlarining oʻsish energiyasi esa 67,6-74,3% oraligʻda boʻlib oʻrtacha 70,9% ekanligi aniqlandi. 2-takroriylikda boʻznoh turlari urugʻlarining oʻsish energiyasi qumloq boʻznohida 82,9-88,4% oraligʻida, oʻrtacha 85,7% ekanligi aniqlangan boʻlsa, Samarqand boʻznohida ushbu koʻrsatkichlar mos ravishda 65,3-70,5% oraligʻda tebranib, oʻrtacha 67,6% ni tashkil qildi. 3-takroriylikda qumloq boʻznohining oʻsish energiyasi 78,6-85,2% oraligʻda kuzatilib, oʻrtacha 83,7% ni tashkil qildi. Samarqand boʻznochi urugʻlarining oʻsish energiyasi esa 67,5-70,7% oraligʻida tebranib oʻrtacha 68,9% ekanligi aniqlandi (2-rasm).



2-rasm. Boʻznoh turlari urugʻlarining oʻsish energiyasi, %

Boʻznoh turlari urugʻlarining oʻsish energiyasi oʻrtacha 3 ta takroriylik tahlili natijasida qumloq boʻznochi urugʻlarining oʻsish energiyasi oʻrtacha 84,3% ni tashkil qilgan boʻlsa, ushbu koʻrsatkich Samarqand boʻznohida oʻrtacha 68,9% ekanligi aniqlandi.

Oʻtkazilgan tajribalar natijalariga koʻra, boʻznoh turlari orasida qumloq boʻznochi Samarqand boʻznohiga qaraganda urugʻ sifat koʻrsatkichlari yuqoriligi bilan ajralib turganligi aniqlandi. Su boisdan ham respublikamizdagi dorivor oʻsimliklarga ixtisoslashgan klasterlarga farmatsevtika sanoati uchun xom ashyo tayyorlash va dorivor oʻsimliklarni xorijga eksport qilish maqsadida Xorazm viloyatining oʻrtacha shoʻrlangan va sugʻoriladigan oʻtloqi – allyuvial tuproqlarida sharoitida qumloq boʻznochi – *Helichrysum arenarium* D.C. ekin maydonlarini kengaytirish va katta plantatsiyalarga ekish maqsadga muvofiqdir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Акулова А.А. Продолжительность хранения и всхожесть семян нетрадиционных культур // Интродукция нетрадиционных и редких сельскохозяйственных растений. III международная научно-производственная конференция. РАСХН. Пенза, 2000. –Т.2. – С. 12-14.
2. Вандышева В.И. Биолого-экологические особенности лекарственных и эфирномасличных растений, интродуцированных в Чуйскую долину. М. – 1983. – С. 203.
3. Исмагилов Р.Р., Нехороших М.С. Качества семян озимой ржи в зависимости от места их формирования в колосе // Современные проблемы науки и образования. – 2014. – № 6. – С.-47.

KANAKUNJUT (*RICINUS COMMUNIS* L.) OʻSIMLIGINING AGROTEXNOLOGIYASI, JAHONDA VA MAMLAKATIMIZDA YETISHTIRISH ISTIQBOLLARI

Raximbayeva D.A.

Xorazm Maʼmun akademiyasi

Kanakunjut (*Ricinus*) – *Euphorbiaceae* oilasining monotipik avlodi. Yagona turi oddiy kanakunjut (*Ricinus communis* L.) – moyli, dorivor va manzarali oʻsimlik sifatida keng tarqalgan [7].

Kanakunjut yovvoyi, madaniy va yarim madaniy shakllarda uchraydi. Kanakunjut nomi lotincha “ricinus” – “kana” soʻzidan kelib chiqqan, chunki kanakunjut urugʻlari qon soʻruvchi hashorot – kanaga juda oʻxshash [4].

Kanakunjutning vatani tropik Afrika hisoblanadi. Tropik zonada oʻsadigan kanakunjut koʻp yillik boʻlib, poyasi yogʻochlangan, boʻyi 10 m ga yetadi [14].

Kanakunjut moyi xalq tabobatida asosan yumshatuvchi sifatida qoʻllanilgan. Bu antiseptik xususiyatlarga ega va toʻqimalarning qayta tiklanishi, ayniqsa teri

КАСАЛЛИГИНИ ПАТОГЕНЕТИК ДАВОЛАШ БОРАСИДА ГЕНЕТИК УСУЛДАН ФОЙДАЛАНИШНИНГ ИЛК ҚАДАМЛАРИ.....	233
Sohibnazarova Kh.A., Abduvohidova Y.O., Urmonaliyeva Sh.U., Ermatova X.Y., Reyimbergenova Z.A., Oltiboeva Kh.A., Abdunabiev A.M., Gulomov J.I. THE EFFECT OF LACTIC ACID BACTERIA ON THE CANDIDA GROUP.....	236
А.Т. Хотамов. СИРДАРЁ ВИЛОЯТИНИНГ ЎРТАЧА ШЎРЛАНГАН ТУПРОҚ ШАРОИТИДА ЕТИШТИРИЛГАН ҒЎЗА НАМУНАЛАРИНИНГ МАҲСУЛДОРЛИК КЎРСАТКИЧЛАРИ.....	238
Yangibayeva N.S. XORAZM VILOYATI SHAROITIDA BUG'DOY DALALARIDA UCHRAYDIGAN HASHAROTLAR.....	241
Masharipov Sh.O., Hasanov Sh.B., Ashirov M.A., Matrasulova Z.A. XORAZM TUPROQ IQLIM SHAROITIDA O'SUVCHI CISTANCHE O'SIMLIGINING TARQALISH AREALINI VA TURLARINI ANIQLASH.....	243
M.N.Sapayeva, M.B. Doschanova, O.Yu. Otayev. PO'SLOQXO'RLARGA (Scolytinae) QARSHI ENTOMOPATOGEN ZAMBURUG'LARDAN FOYDALANISH.....	246
Мирзаева Г.С., Мусаев Д.М., Назаров Ш.Н. ЮҚОРИ ТЎПАЛАНГ МИЛЛИЙ ТАБИАТ БОҒИ ЯРИМҚАТТИҚҚАНОТЛИ (INSECTA: HETEROPTERA) ҲАШАРОТЛАР ФАУНАСИ.....	248

3-SHO'BA. DORIVOR VA HUSHBO'Y O'SIMLIKLAR INTRODUKSIYASI, SELEKSIYASI, YETISHTIRISH TEXNOLOGIYASI, BIOLOGIK FAOL MODDALAR VA TIBBIYOTDA QO'LLANILISHI

Абдурахимов У.К. Илёсов А.А. Саидов Р.И. ХИМИЧЕСКИЙ СОСТАВ СОРТОВ РАСТОРОПШИ ПЯТНИСТОЙ (<i>SILYBUM MARIANUM</i> (L) GAERTN.) В ПОЧВЕННО-КЛИМАТИЧЕСКИХ УСЛОВИЯХ ХОРЕЗМСКОЙ ОБЛАСТИ.....	252
Худайбергенов Н.А., Матсафаема Ш.Т. ЖИНҒИЛНИНГ (<i>LYCIUM BARBARUM</i> L.) ДОРИВОРЛИК ХУСУСИЯТЛАРИ, ТИББИЁТДА ВА ХАЛҚ ҲЎЖАЛИК ҚЎЛЛАНИЛИШИ.....	255
Xabibulla Xoji X.A., Abduraximov U.K. XORAZM VILOYATI TUPROQ-IQLIM SHAROITIDA DORIVOR MAVRAK NAVLARINING FENOLOGIK MUDDATLARI...	259
Xabibulla Xoji X.A., Abduraximov U.K., Saidov R.I. XORAZM VILOYATI TUPROQ- IQLIM SHAROITIDA DORIVOR MAVRAK NAVLARINING O'SISHI, RIVOJLANISHI VA HOSILDORLIGI.....	262
Usmanov R.M., Abduraximov U.K. XORAZM VILOYATI TUPROQ-IQLIM SHAROITIDA DASTARBOSH (<i>TANACETUM</i>) TURLARINING FOTOSINTETIK SALMOG'I.....	266
Abduraximov U.K., Ilyosov A.A. XORAZM VILOYATI TUPROQ-IQLIM SHAROITIDA BO'ZNOCH (<i>HELICHRYSUM</i>) TURLARINING UNUVCHANLIGI VA O'SISH ENERGIYASI.....	269
Raximbayeva D.A. KANAKUNJUT (<i>RICINUS COMMUNIS</i> L.) O'SIMLIGINING AGROTEKNOLOGIYASI, JAHONDA VA MAMLAKATIMIZDA YETISHTIRISH ISTIQBOLLARI.....	272
Қадамбоев Б.Б., Нишонов Э.Ж. МАВРАК (<i>SALVIA OFFICINALIS</i>) ЭКСТРАКТИНИНГ ВА ОДДИЙ САЧРАТҚИ (<i>Cichorum intybus</i> L) БАРҒ ЭКСТРАКТИНИНГ ТИМОЦИТ ҲУЖАЙРАЛАРИ МЕМБРАНАСИГА ТАЪСИРИ....	276
Қадамбоев Б.Б., Олимова М.М. ОДДИЙ САЧРАТҚИ (<i>Cichorum intybus</i> L) БАРҒ ва ЗУПТУРУМ (<i>Plantago</i>) БОШОҚ ЭКСТРАКТИНИНГ ЭРИТРОЦИТ ВА ТИМОЦИТ ҲУЖАЙРАЛАРИ МЕМБРАНАСИГА ТАЪСИРИ.....	277
Ruzmetova N.K., Avazova O.B., Jo'rayev G'N., Xo'jamshukurov N.A. ZA'FARON- NING STIGMALARI UZUNLIGI VA VAZNIGA BIOLOGIK O'G'ITLARNING	